



UDK: 811.1.2

**Gulmira BERDIYEVA,**

*Psixologiya fanlari falsafa doktori (PhD), Toshkent ijtimoiy innovatsiyalar universiteti*

*E-mail: roshshinet@gmail.com*

*Qarshi DU dotsenti, PhD N.Oripova taqrizi asosida*

### KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA BULLINGNING PSIXOLOGIK OMILLARI VA SHAXSIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI

Annotatsiya

Maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda bulling hodisasining psixologik omillari va uning shaxsiy rivojlanishga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Bulling tushunchasining paydo bo'lish tarixi, mazmuni va asosiy shakllari – jismoniy, og'zaki, ijtimoiy va kiber ko'rinishlari yoritilgan. Tadqiqotda ayniqsa 7–10 yoshdagi bolalar o'rtasida og'zaki va ijtimoiy bullingning keng tarqalishi, bu jarayonda zo'ravon, qurbon va guvohlarning psixologik roli hamda ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ochib berilgan. Muallif kichik maktab yoshidagi bolalarda emotsiyalarni boshqarish, empatiya va ijtimoiy moslashuv darajasining hali to'liq shakllanmaganligi bullingning kuchayishiga olib kelishini ilmiy asosda izohlagan.

**Kalit so'zlar:** Bulling, kichik maktab yoshi, psixologik omillar, shaxsiy rivojlanish, emotsional barqarorlik, ijtimoiy moslashuv, kiberbulling.

### ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ИЗДЕВАТЕЛЬСТВ НАД ДЕТЬМИ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЛИЧНОСТНОЕ РАЗВИТИЕ

Аннотация

В статье представлен научно-теоретический анализ психологических факторов буллинга у детей младшего школьного возраста и его влияния на личностное развитие. Рассмотрена история возникновения понятия буллинга, его содержание и основные формы – физические, вербальные, социальные и кибер-проявления. Исследование выявляет широкое распространение вербального и социального буллинга, особенно среди детей 7–10 лет, психологическую роль хулигана, жертвы и свидетелей в этом процессе, а также взаимоотношения между ними. Автор научно объясняет, что тот факт, что уровень эмоционального управления, эмпатии и социальной адаптации у детей младшего школьного возраста еще не полностью сформирован, приводит к усилению буллинга.

**Ключевые слова:** Буллинг, младший школьный возраст, психологические факторы, личностное развитие, эмоциональная стабильность, социальная адаптация, кибербуллинг.

### PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BULLYING IN CHILDREN OF YOUNG SCHOOL AGE AND IMPACT ON PERSONAL DEVELOPMENT

Annotation

The article provides a scientific and theoretical analysis of the psychological factors of bullying in children of primary school age and its impact on personal development. The history of the emergence of the concept of bullying, its content and main forms - physical, verbal, social and cyber manifestations - are covered. The study reveals the widespread prevalence of verbal and social bullying, especially among children aged 7–10, the psychological role of the bully, victim and witnesses in this process, and the relationships between them. The author scientifically explains that the fact that the level of emotional management, empathy and social adaptation in children of primary school age is not yet fully formed leads to an increase in bullying.

**Key words:** Bullying, primary school age, psychological factors, personal development, emotional stability, social adaptation, cyberbullying.

**Kirish.** So'nggi yillarda dunyo miqyosida ta'lim tizimida nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning psixologik holatini mustahkamlash, ularning ruhiy salomatligini ta'minlash, maktab muhitida sog'lom ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish masalasi tobora dolzarblashib bormoqda. Zero, har qanday shaxsning yetuk inson bo'lib kamol topishi uchun nafaqat bilim olish, balki o'zini jamiyat a'zosi sifatida his qilish, ijtimoiy guruhga qo'shila olish, emotsional barqarorlikka erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bulling tushunchasi birinchi marta XX asrning 70-yillarida skandinav olimlari tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u bolalar va o'smirlar o'rtasidagi takroriy zo'ravonlik holatlarini tavsiflash uchun qo'llanilgan [1, 12-b.]. Bugungi kunda bulling keng qamrovli ijtimoiy-psixologik muammo sifatida qaralmoqda. U jismoniy, og'zaki, psixologik

va kiber shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Ayniqsa, kichik maktab yoshida bullingning oldini olish muhim, chunki bu davrda bola endigina jamoaga qo'shilmoqda, o'z o'rnini topishga urinmoqda va ijtimoiy qoidalarga moslashishni o'rganmoqda. Agar shu davrda u bulling qurboni yoki tashabbuskori bo'lsa, bu uning butun hayotiga, kelgusidagi shaxsiy rivojlanishiga va ijtimoiy aloqalariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bulling hodisasi – bu ko'pincha maktab jamoasi doirasida kuzatiladigan, kuchliroq bola yoki bolalar guruhi tomonidan zaifroq bolaga nisbatan takrorlanuvchi, maqsadli va salbiy xatti-harakatlarni amalga oshirish jarayonidir. U oddiy janjaldan yoki ziddiyatdan farq qiladi, chunki bullingda kuchlar nomutanosibliigi mavjud bo'ladi: bir tomon o'zini himoya qila olmaydi, ikkinchi tomon esa zo'ravonlikni davom ettiradi[2].

**Adabiyotlar tahlili.** Bullingning asosiy ko'rinishlari quyidagilardan iborat: birinchisi, jismoniy bulling – urish, turtish, buyumlarini tortib olish, shikast yetkazish; ikkinchisi, og'zaki bulling – haqorat qilish, masxara qilish, taxallus qo'yish, kamsitish; uchinchisi, ijtimoiy bulling – guruhdan ajratish, do'stlashishni taqiqlash, yolg'iz qoldirish; to'rtinchisi, kiberbulling – internet yoki telefon orqali qo'rqitish, masxara qilish[3]. Kichik maktab yoshida, ya'ni 7–10 yosh oralig'ida, bolalar ko'proq og'zaki va ijtimoiy bullingdan aziyat chekadilar. Chunki ular jismoniy jihatdan hamon nazorat ostida bo'lib, kattalarning ko'zi o'ngida kuch ishlatish imkoniyati cheklangan bo'ladi, ammo so'z orqali yoki ijtimoiy izolyatsiya yo'li bilan zo'ronlik qilish tez-tez uchraydi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, bullingning yuzaga kelishida uchta asosiy tomon ishtirok etadi: zo'rvon (agressor), qurbon va guvohlar. Guvohlar ko'pincha faol aralashmaydi, ular tomoshabin sifatida qoladilar. Shu sababli bullingni kamaytirishda faqat qurbon va zo'rvon bilan ishlash emas, balki guvohlarni ham faoliyatga jalb qilish, ularni himoya qilish va aralashishga o'rgatish juda muhimdir[4].

Kichik maktab yoshidagi bolalarda bullingning psixologik xususiyatlari shundan iboratki, ular hali o'z emotsiyalarini to'liq boshqara olmaydilar, empatiya – ya'ni boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish qobiliyati yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi. Natijada, ular zo'rvonlikning oqibatlarini chuqur anglamay, bullingni "o'yin" sifatida qabul qilishlari mumkin. Biroq bu o'yin qurbon uchun og'ir psixologik travmaga aylanadi. Bundan tashqari, bu yoshda bolalar jamoa ichida o'z o'rmini topishga urinadilar. Shu jarayonda kimdir kuchliroq bo'lib, liderlikni qo'lga olishga intilsa, kimdir zaifroq bo'lib, qurbon roliga tushib qolishi mumkin[5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bullingni yuzaga keltiruvchi omillar ko'p qirrali bo'lib, ular orasida oilaviy muhit alohida o'rin tutadi. Agar bola oilada zo'rvonlikka guvoh bo'lsa yoki u bilan qo'pol munosabatda bo'lishsa, u maktabda ham shunday xatti-harakatlarni takrorlashi mumkin. Shuningdek, mehr yetishmovchiligi, ota-onaning beparvoligi ham bolaning agressiv bo'lishiga sabab bo'ladi. Qurbon rolidagi bolalar esa odatda tortinchoq, kamgap, jismoniy jihatdan kichikroq yoki o'ziga ishonchsiz bo'lishi mumkin [6].

Maktab muhitida bulling hodisasining psixologik xususiyatlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu jarayon bolalarning yosh davri rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Kichik maktab yoshidagi bola o'zining emotsional sohasini to'liq boshqara olmaydi, ko'proq hissiyotlarga beriluvchan, jamoaviy qadriyatlarini esa endigina o'zlashtirib boradi. Shu sababli bulling aynan shu davrda tez-tez namoyon bo'ladi va o'ziga xos shakllarda yuzaga chiqadi[7].

Bullingning psixologik xususiyatlari orasida eng muhimlaridan biri – bu uning muntazamligi va takrorlanishidir. Oddiy janjal yoki nizodan farqli o'laroq, bulling doimiy ravishda ma'lum bir shaxsga qarshi yo'naltiriladi. Bu jarayonda qurbon o'zini himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi, natijada uning psixik salomatligida chuqur iz qoldiruvchi jarayonlar kechadi. Bolaning ichki dunyosida doimiy xavotir, o'ziga ishonchsizlik, qo'rquv kabi salbiy hissiyotlar shakllanadi[8].

Maktab muhitida bullingning psixologik mexanizmlarini tushuntirishda "ijtimoiy ta'sir" va "ijtimoiy o'rganish" nazariyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy ta'sir nazariyasiga ko'ra, bola guruh ichidagi dominant shaxslarning xatti-harakatlarini kuzatadi va ularga moslashishga harakat qiladi. Agar sinfda agressiv lider bo'lsa, uning harakatlarini boshqalar ham o'zlashtiradi, natijada bulling odatiy norma sifatida qabul qilinishi mumkin. Ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra esa, bolalar boshqalarning

harakatlarini kuzatish va taqlid qilish orqali o'z xulqini shakllantiradilar. Demak, agar maktab muhitida bullingga befarqlik mavjud bo'lsa, bolalar bu xatti-harakatni qabul qilib, uni davom ettiradilar[9].

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot jarayonida kichik maktab yoshidagi bolalarda bulling hodisasining psixologik xususiyatlari va uning shaxsiy rivojlanishga ta'siri bir necha muhim yo'nalishlarda aniqlandi.

1. Empatiya darajasining pastligi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda boshqalarning his-tuyg'ularini anglash va ularga hamdardlik ko'rsatish qobiliyati yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatildi. Bu esa bulling jarayonini "hazil" yoki "o'yin" sifatida qabul qilishga olib keladi. Shuningdek, empatiya darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar ham zo'rvonlikka qarshi faol qarshilik ko'rsata olmay, tomoshabin sifatida chetda qolishlari aniqlangan [10].

2. O'qituvchi omilining muhimligi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining sinfdagi nizolarga bo'lgan munosabati bullingning rivojlanish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar o'qituvchi kichik mojarolarni e'tiborsiz qoldirsa yoki ularni "odatiy bolalar o'yini" sifatida baholasa, bulling holatlari kuchayadi. Aksincha, psixologik sezgirlikka ega bo'lgan, hamkorlik va hamdardlik qadriyatlarini singdirishga harakat qiladigan pedagoglar sinflarda bulling darajasini sezilarli kamaytirishga muvaffaq bo'ladilar.

3. Yashirin bullingning ustuvorligi. Kichik maktab yoshida bullingning ko'proq ochiq shakllari (masxara qilish, urish-turtish) kuzatilsa-da, yashirin shakllar ham keng tarqalganligi aniqlandi. O'quvchini o'yinlardan chetlatish, guruhdan ajratish, sirdan haqoratli laqablar qo'yish kabi yashirin bulling turlari ko'pincha o'qituvchi va ota-onalarning e'tiboridan chetda qolmoqda. Biroq ularning psixologik oqibatlari ochiq bullingdan kam emasligi qayd etildi.

4. Bullingning psixologik xususiyatlari. Tahlillar bullingning muntazamligi, kuchlar nomutanosibligi, empatiya yetishmasligi va ijtimoiy ta'sir mexanizmlari orqali shakllanishini ko'rsatdi. Ushbu jihatlar bolalarning psixologik rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, shaxsiy shakllanish jarayoniga bevosita ta'sir qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari kichik maktab yoshidagi bolalarda bulling hodisasining ko'p qirrali psixologik ildizlarga ega ekanligini, uning shaxsiy rivojlanish, emotsional barqarorlik va ijtimoiy moslashuv jarayonlariga jiddiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Shu bois bullingni faqat individual muammo sifatida emas, balki butun sinf va maktab muhitining psixologik holati bilan uzviy bog'liq ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida ko'rib chiqish zarurligi ilmiy asoslandi.

Tadqiqot natijalari kichik maktab yoshidagi bolalarda bulling hodisasining psixologik ildizlari va uning shaxsiy rivojlanishga ta'siri murakkab hamda ko'p qirrali jarayon ekanligini ko'rsatdi. Bu natijalarni muhokama qilish orqali bir nechta muhim ilmiy va amaliy xulosalar chiqarish mumkin.

1. Empatiya darajasi va ijtimoiy moslashuv. Kichik maktab yoshidagi bolalarda empatiya qobiliyatining hali to'liq shakllanmaganligi bullingni keng tarqalishiga sabab bo'luvchi asosiy omillardan biri sifatida tasdiqlandi. Boshqalarning ruhiy og'riqlarini his eta olmaslik, zo'rvonlikni "o'yin" sifatida qabul qilish — bu davrning psixologik xususiyatlaridan biridir. Shu bilan birga, empatiya yuqori darajada rivojlangan bolalarda ham o'zini himoya qilish yoki zo'rvonga qarshi turish mexanizmlarining sustligi ularga faqat "tomoshabin" rolini yuklaydi. Bu esa bullingni to'xtatish jarayonida guvohlarning faol ishtirokini ta'minlash zarurligini yana bir bor ko'rsatadi.

2. O'qituvchining o'rni va pedagogik sezgirlik. Natijalardan ma'lum bo'ldiki, o'qituvchining sinfdagi vaziyatni baholashdagi sezgirliги bullingni kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi nizolarni "oddiy bolalarcha

hazil" sifatida baholasa, bullying holatlari kuchayib boradi. Aksincha, pedagog tomonidan hamdardlik, o'zaro yordam, hamkorlik kabi qadriyatlarni shakllantirish sinf iqlimini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Bu esa o'qituvchilar uchun maxsus psixologik tayyorgarlik dasturlarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

3. Yashirin bullyingning xavfi. Tadqiqot yashirin bullying — ya'ni o'quvchini guruhdan chetlatish, o'yinlarga qo'shmaslik, laqab qo'yish kabi noaniq shakllarning keng tarqalganligini ko'rsatdi. U ko'pincha ota-ona va o'qituvchi nazariidan chetda qoladi, biroq qurbonning psixologik salomatligiga ochiq bullyingdan kam bo'lmagan salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, yashirin bullyingni aniqlash uchun maktab psixologlari va o'qituvchilarning diagnostik ko'nikmalarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

4. Oilaviy muhit, shaxsiy xususiyatlar va maktab muhiti o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Natijalar bullying hodisasining kelib chiqishida oilaviy tarbiya, bolaning individual-psixologik xususiyatlari va maktab iqlimi uzviy bog'liq ekanini tasdiqladi. Oilada zo'ravonlikka guvoh bo'lgan yoki e'tibordan chetda qolgan bolalar maktabda bullying tashabbuskorlari yoki qurbonlariga aylanish ehtimoli yuqori. Shuningdek, maktab muhitidagi nazoratning sustligi va tengdoshlar guruhidagi ijtimoiy rollar bullyingning shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi.

5. Ilmiy-amaliy ahamiyat. Tadqiqot natijalari bullyingni nafaqat individual muammo, balki maktab jamoasining umumiy psixologik iqlimiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa ta'lim tizimida bullyingning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan kompleks yondashuvni talab qiladi: o'qituvchilar va ota-onalar bilan izchil ishlash, sinflarda emotsional intellektni rivojlantirish, hamdardlik va hamkorlik qadriyatlarini targ'ib qilish, maktab psixologlari faoliyatini kuchaytirish.

**Xulosalar.** Kichik maktab yoshidagi bolalarda bullying hodisasi murakkab psixologik va ijtimoiy muammo sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bullyingning shakllari (jismoniy, og'zaki, ijtimoiy va kiber) kichik yoshdagi bolalar orasida turlicha darajada uchrasa-da, ularning barchasi bolalarning ruhiy salomatligi va shaxsiy rivojlanishiga chuqur zarar yetkazadi. Bullingning yuzaga kelishida oilaviy muhit, bolaning shaxsiy-psixologik xususiyatlari hamda tengdoshlar guruhi va maktab muhiti hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, bullying muammosini faqat individual yoki alohida hodisa sifatida emas, balki butun ijtimoiy tizim – oila, maktab va jamiyat darajasida hal qilish lozim. Faqat shundagina bolalarning psixik salomatligi va shaxsiy rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Olweus, D. (1993). *Bullying at school: What we know and what we can do*. Oxford: Blackwell.
2. Rigby, K. (2003). *Addressing bullying in schools: Theory and practice*. Australian Institute of Criminology.
3. Smith, P. K., & Sharp, S. (1994). *School bullying: Insights and perspectives*. London: Routledge.
4. Karimova, V. M. (2006). *Psixologiya: umumiy asoslar*. Toshkent: O'zbekiston.
5. G'oziev, E. (2002). *Umumiy psixologiya*. Toshkent: O'qituvchi.
6. Bandura, A. (1977). *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs: Prentice-Hall.
7. Bronfenbrenner, U. (1979). *The ecology of human development*. Cambridge: Harvard University Press.
8. Xalq ta'limi vazirligi. (2021). *Maktab psixologlari uchun uslubiy qo'llanma*. Toshkent.
9. Ergasheva, B. (2022). Zamonaviy psixologiyaning pedagogika bilan uzviy bog'liqligi. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(7).
10. World Health Organization (2020). *School violence and bullying: Global status report*. Geneva: WHO.